

YANGI O'ZBEKISTONDA KASBIY TA'LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYALASH: ISLOHOTLAR, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR

необходимость разработки научно обоснованных стратегий и механизмов адаптации международного опыта к условиям функционирования национальной системы профессионального образования.

Таким образом, интеграция техникумов в международные образовательные программы представляет собой закономерный этап развития системы профессионального образования Республики Узбекистан, направленный на повышение качества подготовки кадров, укрепление международного сотрудничества, внедрение инновационных образовательных технологий и обеспечение конкурентоспособности выпускников в условиях глобализации и цифровой экономики. Эффективная реализация интеграционных процессов будет способствовать дальнейшему совершенствованию национальной системы профессионального образования и укреплению человеческого капитала страны.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Указ Президента Республики Узбекистан от 6 сентября 2019 года № УП-5812 «О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию системы профессионального образования».
2. Указ Президента Республики Узбекистан от 21 октября 2024 года № УП-158 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы подготовки квалифицированных кадров и внедрению международных образовательных программ в профессиональном образовании».
3. Постановление Президента Республики Узбекистан от 25 октября 2025 года № ПП-316 «О мерах по реализации реформ в системе профессионального образования».
4. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 7 августа 2020 года № 466 «О мерах по организации деятельности техникумов».
5. Зеер Э. Ф. Профессиональное образование. Теория и практика. – М.: Академия, 2021. – 320 с.
6. Вербицкий А. А. Компетентностный подход и теория контекстного обучения. – М.: ИД МИСиС, 2017. – 284 с.
7. UNESCO. Strategy for Technical and Vocational Education and Training (TVET) 2022–2029. – Paris: UNESCO, 2022.
8. OECD. Skills Outlook 2023: Skills for a Resilient Green and Digital Transition. – Paris: OECD Publishing, 2023.

KREATIV TA'LIM MUHITIDA TALABALARNING IJODIY SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Sariboyev Nurali Abdunazarovich,

GulDPI o'qituvchisi

E-mail : sariboyevnurali@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20794336>

Annotatsiya Mazkur tezisda kreativ ta'lim muhitining mazmun-mohiyati, uning tarkibiy komponentlari hamda talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, kreativ ta'lim texnologiyalaridan foydalanish asosida talabalarda mustaqil fikrlash, muammolarga yangicha yondashish, innovatsion g'oyalarni ilgari surish va amaliy faoliyatda qo'llash kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kreativ ta'lim, kreativ muhit, ijodiy salohiyat, innovatsion faoliyat, kreativ kompetensiya, kreativ pedagogika, ta'lim texnologiyalari, refleksiya.

Zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri talabalarning ijodiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish va ularni innovatsion faoliyatga tayyorlashdan iborat. Fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi, mehnat bozorida yangi kasblarning paydo bo'lishi hamda raqamli transformatsiya jarayonlari ta'lim oldiga mutlaqo yangi talablarni qo'yimoqda. Bunday sharoitda talaba nafaqat tayyor bilimlarni o'zlashtiruvchi, balki yangi g'oyalar yaratuvchi, muammolarni mustaqil hal etuvchi va innovatsion qarorlar qabul qiluvchi

МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ: РЕФОРМЫ, ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ

shaxs sifatida shakllanishi zarur. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda kreativ ta'lim muhitini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Kreativ muhit talabani individual qobiliyatlari va imkoniyatlarini namoyon etish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish hamda innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi pedagogik tizim hisoblanadi.

Kreativ ta'lim muhitining mohiyati kreativ ta'lim muhiti deganda talabani erkin fikrlashi, tashabbus ko'rsatishi, yangi g'oyalarni ilgari surishi va ijodiy faoliyat bilan shug'ullanishi uchun yaratilgan pedagogik, psixologik va tashkiliy sharoitlar majmui tushuniladi. Kreativ ta'lim muhiti talabani intellektual salohiyatini rivojlantirish bilan bir qatorda uning shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini ham takomillashtiradi.

Talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish mexanizmlari Talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish murakkab pedagogik jarayon bo'lib, u bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan bir qator mexanizmlar orqali amalga oshiriladi.

Motivatsion mexanizm – inson xatti-harakatlarini boshqaradigan, muayyan maqsad sari yo'naltiradigan va uni bajarishga undovchi psixologik hamda fiziologik jarayonlar majmuidir. U inson ehtiyojlarini qondirish uchun ichki va tashqi omillarni uyg'unlashtirib beradi. Ijodiy faoliyatning asosiy harakatlantiruvchi kuchi motivatsiya hisoblanadi. Talabalarda bilim olishga, yangilik yaratishga va o'z imkoniyatlarini namoyon etishga bo'lgan ichki ehtiyojni shakllantirish kreativ rivojlanishning muhim omilidir. Ichki motivatsiyaning shakllanishi talabani kreativ faoliyatga bo'lgan qiziqishini oshirib, uning ijodiy tashabbuslarini faollashtiradi.

Kognitiv mexanizm - Kognitiv mexanizm shaxsning bilimlarni qabul qilish, qayta ishlash, saqlash va amaliy faoliyatda qo'llash bilan bog'liq bo'lgan intellektual jarayonlar majmuasini ifodalaydi. Kreativ ta'lim muhitida kognitiv mexanizm talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Chunki har qanday ijodiy faoliyat avvalo mavjud bilimlarni anglash, tahlil qilish, ularni yangi vaziyatlarga moslashtirish va yangicha g'oyalar yaratish jarayonlariga asoslanadi. Kognitiv mexanizmning asosiy vazifasi talabani bilish faoliyatini faollashtirish, uning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va intellektual salohiyatini kengaytirishdan iborat. Mazkur mexanizm orqali talaba nafaqat tayyor bilimlarni o'zlashtiradi, balki ularni qayta talqin qiladi, yangi ma'lumotlar bilan boyitadi va amaliy muammolarni hal etishda qo'llaydi. Kognitiv faoliyatning rivojlanishi natijasida talaba turli vaziyatlarga yangicha nazar bilan qarash va innovatsion g'oyalarni ilgari surish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Faoliyatli mexanizm - bu talabani ta'lim jarayonidagi amaliy faoliyati orqali bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni egallashini ta'minlovchi pedagogik tizimdir. Ushbu mexanizmning asosiy mazmuni talabani passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylanishida namoyon bo'ladi. Faoliyatli mexanizmning nazariy asosida shaxsning rivojlanishi faoliyat jarayonida sodir bo'lishi haqidagi pedagogik va psixologik qarashlar yotadi. Mazkur yondashuvga ko'ra, bilimlar tayyor holda berilmaydi, balki talabani amaliy faoliyati davomida o'zlashtiriladi va mustahkamlanadi. Kreativ ta'lim sharoitida faoliyatli mexanizm talabani ijodiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, tashabbuskorlikni rivojlantirish va innovatsion faoliyatga tayyorlashning samarali vositasi hisoblanadi. Ijodiy salohiyat faqat nazariy bilimlar orqali emas, balki amaliy faoliyat davomida rivojlanadi. Shu sababli kreativ ta'lim muhitida talabalarni turli faoliyat turlariga jalb qilish muhim hisoblanadi. Faoliyatli mexanizm talabalarda mustaqil qaror qabul qilish, jamoada ishlash va innovatsion yechimlar ishlab chiqish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Kommunikativ mexanizm - kommunikativ mexanizm shaxslar o'rtasidagi axborot almashinuvi, fikrlar, g'oyalar va tajribalarni o'zaro uzatish hamda hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etishga xizmat qiluvchi pedagogik jarayondir. Kreativ ta'lim muhitida ushbu mexanizm talabalarning faol muloqotga kirishishi, o'z nuqtai nazarini erkin ifodalashi va boshqalarning fikrlarini tahlil qilishi uchun zarur sharoit yaratadi. Kommunikativ mexanizmning asosiy vazifasi ta'lim jarayonini dialogik xarakterga ega bo'lgan faol hamkorlik muhiti sifatida tashkil etishdan iborat. Bunday muhitda har bir talaba o'zining intellektual va ijodiy imkoniyatlarini namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Kreativ pedagogikada kommunikatsiya faqat axborot almashish vositasi emas, balki yangi bilimlar yaratish va innovatsion g'oyalarni shakllantirishning muhim omili sifatida qaraladi. Bunday faoliyat natijasida talabalar o'z fikrlarini asoslash, himoya qilish va boshqalarning nuqtai nazarini tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Refleksiv mexanizm - refleksiv mexanizm shaxsning o'z faoliyati, xatti-harakati, bilimlari va tajribasini anglash, tahlil qilish hamda baholashga qaratilgan ichki intellektual jarayonlar tizimidir. Mazkur mexanizm orqali talaba o'zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi, mavjud muammolarni ko'radi hamda ularni

YANGI O'ZBEKISTONDA KASBIY TA'LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYALASH: ISLOHOTLAR, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR

bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqadi. Refleksiya insonning o'z fikrlari va faoliyatiga tashqi kuzatuvchi sifatida nazar tashlay olish qobiliyatini ifodalaydi. Kreativ ta'lim muhitida refleksiv mexanizm talabaning o'z ustida ishlashiga, o'z imkoniyatlarini baholashiga va ijodiy rivojlanish istiqbollarini belgilashiga xizmat qiladi. Kreativ faoliyat jarayonida refleksiya yangi g'oyalar yaratish, mavjud tajribalarni qayta ko'rib chiqish va innovatsion qarorlar qabul qilishning muhim sharti hisoblanadi.

Kreativ ta'lim texnologiyalarining imkoniyatlari Kreativ ta'lim texnologiyalari ta'lim jarayonida talabalarning ijodiy fikrlashini, muammolarni nostandart hal qilish qobiliyatini va innovatsion faoliyatga tayyorligini rivojlantirishga qaratilgan metodlar, usullar va vositalar tizimini anglatadi. Talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda kreativ ta'lim texnologiyalari alohida o'rin tutadi. Ular ta'lim jarayonini talaba shaxsiga yo'naltirish hamda uning ijodiy imkoniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyalar talabalarda kreativ fikrlash, innovatsion qaror qabul qilish va yangi mahsulot yaratish kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Kreativ ta'lim muhiti talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Bunday muhitda motivatsion, kognitiv, faoliyatli, kommunikativ va refleksiv mexanizmlar o'zaro uyg'un holda faoliyat ko'rsatadi. Natijada talabalarda mustaqil fikrlash, innovatsion yondashuv, muammolarni ijodiy hal etish va yangi g'oyalarni yaratish kompetensiyalari shakllanadi. Kreativ pedagogika fanini o'qitishda kreativ ta'lim texnologiyalaridan keng foydalanish bo'lajak mutaxassislarining innovatsion-ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishga, ularning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishga hamda zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh kadr sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Guilford J.P. The Nature of Human Intelligence. New York, 1967.
2. Vygotsky L.S. Mind in Society. Harvard University Press, 1978.
3. Anderson T. The Theory and Practice of Online Learning. 2008.
4. Siemens G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age. 2005.
5. Polat E.S. New Pedagogical and Information Technologies in Education. 2007.
6. Bonk C.J., Graham C.R. The Handbook of Blended Learning. 2006.
7. Jonassen D. Learning to Solve Problems with Technology. 2011.
8. Mishra P., Koehler M. TPACK Framework. 2006.
9. Resnick M. Lifelong Kindergarten. MIT Press, 2017.
10. Talabalarning Innovatsion-Ijodiy Kompetensiya Rivojlantirish Tushunchasi, Mazmuni Va Ularning Malakasiga Qo'yilgan Talablar Sariboyev Nurali Abdunazarovich
11. Oliy ta'limda kreativ muhit yaratish orqali ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish Sariboyev Nurali Abdunazarovich.

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA ISHLAB CHIQUARISH TA'LIMI USTALARINING KASBIY FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

Xaydarov Botir Mashrapovich

Kasbiy ta'limni rivojlantirish instituti

"Innovatsion ta'lim texnologiyalari" kafedrası dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20794336>

Annotatsiya. Maqolada kompetensiyaviy yondashuv asosida ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy faoliyatini tashkil etishning ahamiyati yoritilgan. Ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy, pedagogik va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari tahlil qilinib, ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda SCAFFOLD instrumentining imkoniyatlari ko'rsatib berilgan. Shuningdek, mazkur instrument